

## LINGVOMADANIY KOMPETENSIYANING MOHIYATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Maqola taqrizchisi: Xodjayeva Dilafro'z Izatilloevna, f.f.f.d.,  
dotsent*

*Vohidova Sitorabonu Hurmatulloevna, A.Avloniy nomidagi  
pedagogik mahorat milliy instituti tayanch doktoranti*

## THE ESSENCE AND CHARACTERISTICS OF LINGUOCULTURAL COMPETENCE

*Vokhidova Sitorabonu Hurmatulloevna, PhD student at the  
A.Avloniy National Institute of Pedagogical Skills*

## СУЩНОСТЬ И ХАРАКТЕРИСТИКИ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

*Вохидова Ситорабону Хурматуллоевна, базовый докторант  
национального института педагогического мастерства  
имени А.Авлоний*



<https://orcid.org/0009-0009-9078-1683>

e-mail:  
[sitoravakhidova@gmail.com](mailto:sitoravakhidova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tili darslarida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga oid nazariy va metodik masalalar tahlil qilingan. Tadqiqotda lingvistik, psixologik va psixolingvistik yondashuvlar asosida ushbu kompetensiyaning mohiyati hamda o'quvchilarning madaniy bilimlarini oshirishdagi ahamiyati o'rganilgan. Muallif tomonidan o'quvchilarda lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan zamonaviy metodlar va texnologiyalar taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvokulturologiya, tilshunoslik, madaniyat, tarix, til, uslublar, metodika, ingliz tili, o'zbek tili, iboralar, maqollar, xalqaro munosabatlar, kompetensiya.

**Abstract:** This article analyzes theoretical and methodological aspects of forming and improving linguo-cultural competence in English language lessons. The study explores the essence of this competence and its significance in enhancing students' cultural knowledge based on linguistic, psychological, and psycholinguistic approaches. The author proposes modern methods and technologies aimed at developing linguo-cultural competence in learners.

**Keywords:** linguoculturology, linguistics, culture, history, language, methods, methodology, English, Uzbek, phrases, proverbs, international relationships, competence.

**Аннотация:** В данной статье проанализированы теоретические и методологические аспекты формирования и развития лингвокультурной компетенции на уроках английского языка. Исследование рассматривает сущность этой компетенции и её значение для повышения культурных знаний учащихся на основе лингвистических, психологических и психолингвистических подходов. Автор предлагает современные методы и технологии, направленные на развитие лингвокультурной компетенции.

**Ключевые слова:** лингвокультурология, лингвистика, культура, история, язык, методы, методология, английский язык, узбекский язык, словосочетания, пословицы, международные отношения, компетентность.

**KIRISH.** Lingvomadaniy kompetensiya – bu tilni uning madaniy kontekstida to‘g‘ri tushunish va to‘g‘ri qo‘llay olish qobiliyati sifatida ta‘riflanadi. Ushbu kompetensiya nafaqat tilning grammatik va leksik jihatlarini o‘zlashtirishni, balki madaniy qadriyatlar, norma va an‘analarni anglashni ham o‘z ichiga oladi. Xususan, ingliz tilini o‘rganishda lingvomadaniy kompetensiya muhim ahamiyatga ega, chunki bu tilda madaniy nozik jihatlar (masalan, iboralar, kontekstga mos muloqot uslubi) ko‘pincha tilni qanday ishlatishni belgilab beradi. Shu sababli, xorijiy til sifatida ingliz tilini o‘rganishda ushbu kompetensiyani rivojlantirish o‘quvchilarning tilni samarali va mos ravishda qo‘llay olishlari uchun zarurdir.

**MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI.** Lingvomadaniy kompetensiya – bu til va madaniyatni birlashtirgan holda tilni o‘rganish va qo‘llash jarayonida shakllanadigan ko‘nikmadir. Bu ko‘nikma M.Byram tomonidan ishlab chiqilgan “Madaniyatlararo kompetensiya modeli” asosida tushuntiriladi [1;320-b]. Ushbu modelga ko‘ra, lingvomadaniy kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat.

Lingvistik kompetensiya: tilning grammatikasi, leksikasi va sintaksisini bilish. Masalan, “How are you?” savoli nafaqat salomatlik holatini so‘rash uchun, balki muloqotni boshlashning odatiy madaniy shakli ekanligini anglatadi[2;34-b].

Madaniy kompetensiya: til bilan bog‘liq madaniy normalar, qadriyatlar va urf-odatlarini tushunish va ularga moslashish hisoblanadi. Masalan, ingliz madaniyatida rahmat aytish juda muhim: “Thank you” yoki “Thanks a lot” kabi iboralar har kuni keng qo‘llaniladi [3;67-b].

Lingvomadaniy kompetensiya nazariyasi E.Sapir va B.Whorfning til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik haqidagi tadqiqotlariga tayanadi. Ularning tadqiqotlari madaniy qadriyatlarning til orqali ifodalanishini ko‘rsatadi [4;89-b].

Lingvokulturologiyaning asosiy xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u fanlararo integratsiyalasha oladi. Ya‘ni lingvomadaniy kompetensiya lingvistika, madaniyatshunoslik,

psixologiya va ta‘limni birlashtiradi. Dell Hymesning kommunikativ kompetensiya haqidagi ishlari shuni ko‘rsatadiki, tilni to‘g‘ri qo‘llash muloqotning madaniy sharoitini anglashni talab qiladi[5; 281-b].

Shuni ta‘kidlash joizki, lingvokulturologiya har doim dinamik jarayonda o‘quvchilarda rivojlana oladi. Buning uchun ingliz tilini o‘rgatish metodikasini til, madaniyat va tarixni umumlashtirgan holatda takomillashtirish kerak. Vigotskiyning fikriga ko‘ra, ushbu kompetensiya doimiy ravishda rivojlanib boradi. Masalan, o‘quvchilar tilni amalda qo‘llab, madaniyat bilan bevosita tanishganlarida, ularning lingvomadaniy kompetensiyasi kuchayadi [6;57-b].

Lingvokulturologiya kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqishda kontekstga moslashuvchanlikka alohida e‘tibor qaratish muhim hisoblanadi. Chunki til va madaniyatni o‘rganish ijtimoiy, geografik va madaniy sharoitga qarab moslashuvchan bo‘lishni talab qiladi. Masalan, AQShning shimoliy hududlarida “pop” so‘zi sodali ichimlik ma‘nosini bildirsa, janubda “coke” iborasi umumiy nom sifatida ishlatiladi [7;113-b].

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI.**

Ushbu maqola **lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish metodikasini** o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, tadqiqot quyidagi metodlar asosida amalga oshirildi:

**1. Nazariy tahlil.** Tadqiqot davomida lingvistik, psixolingvistik va pedagogik adabiyotlarning nazariy tahlili amalga oshirildi. Ushbu tahlil orqali lingvomadaniy kompetensiyaning mohiyati, asosiy xususiyatlari va uni shakllantirish tamoyillari aniqlab olindi.

**2. Empirik metodlar. Kuzatish:** ingliz tili darslarida o‘quvchilarning lingvomadaniy kompetensiyalarni o‘zlashtirish jarayoni tizimli ravishda kuzatildi.

**So‘rovnoma va intervyu:** O‘qituvchilar va o‘quvchilar o‘rtasida so‘rovnoma hamda intervyu tashkil qilindi. Maqsad – dars jarayonlarida lingvomadaniy kompetensiyalarni shakllantirishning samaradorligini aniqlash. Bunda O‘zbekistonning uch viloyati, ya‘ni Buxoro, Samarqand va Toshkent

viloyatlari tanlab olindi. Har bir viloyatdan 3 ta maktab o'quvchilari so'rovnomada faol ishtirok etishdi.

**Tajriba-sinov ishlari:** Tadqiqot obyekti sifatida tanlangan sinflarda eksperimental darslar tashkil etildi va olingan natijalar tahlil qilindi.

### 3. Statistika va natijalarni tahlil qilish.

Tajriba jarayonida olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida qayta ishlanib, lingvomadaniy kompetensiya rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlandi.

**4. Taqqoslash va umumlashtirish.** Turli mamlakatlarning tajribasi o'rganilib, lingvomadaniy yondashuvlarni solishtirish asosida xulosalar shakllantirildi.

**Tahlil va natijalar.** Til o'rganishda madaniyatning roli katta hisoblanadi. Chunki madaniy ong tilni samarali o'rganish uchun muhimdir. Kramsch o'zining "Language and Culture" kitobida til va madaniyatning bir-biri bilan chambarchas bog'liqligini ta'kidlab, tilning madaniyatni aks ettirish vositasi ekanligini qayd etadi [3;78-b]. Misol uchun ingliz tilida ishlatiladigan idiomalar va maqollar madaniyatni aks ettiradi.

Idioma: "It's raining cats and dogs" – kuchli yomg'ir yog'ayotganini ifodalaydi, ammo bu ibora boshqa tillarga tarjima qilinganda o'z ma'nosini yo'qotadi.

Maqol: "The early bird catches the worm" – erta turgan kishining muvaffaqiyat qozonishini anglatuvchi maqol, lekin bu g'arb madaniyatidagi mehnatsevarlik qadriyatlarini ifodalaydi [2; 46-b].

Madaniyatning til o'rganishga ta'sirini oshirish uchun, o'quv materiallariga autentik manbalarni, masalan, ingliz tilidagi adabiyotlar, filmlar va audio yozuvlarni kiritish muhimdir. Bu o'quvchilarning tilni nafaqat lingvistik, balki madaniy jihatdan ham o'zlashtirishiga yordam beradi [8; 186-b].

Bundan tashqari, ingliz tili darslariga lingvomadaniy kompetensiyani integratsiya qilish o'quvchilarning til o'rganish jarayonini yanada samarali qilish uchun muhimdir. Lingvomadaniy kompetensiyani ingliz tili darslariga integratsiya qilish bugungi kunda global va ko'p madaniyatli muhitda muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun zarur. Quyida uning ahamiyati bayon etiladi:

1. Madaniy noto'g'ri tushunchalarning oldini olish. Lingvomadaniy kompetensiya o'quvchilarga boshqa madaniyatlar bilan o'zaro muloqotda bo'lishda xatolarga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi. Masalan, ingliz tilida "How are you?" kabi iboralar odatiy salomlashuv shakli bo'lsa, boshqa madaniyatlarda bu savol shaxsiy ma'noda qabul qilinishi mumkin. Ushbu farqlarni tushunish o'quvchilarning muloqotdagi xatolarni kamaytirishiga yordam beradi [2;56-b].

Bundan tashqari lingvomadaniy kompetensiya o'quvchilardan nafaqat tilni bilish, balki madaniy kontekstni tushunishni ham talab qiladi. Misol: ingliz tilidagi "Sorry" so'zi nafaqat uzr so'rash uchun, balki kundalik hayotda noqulaylik keltirganlikda ham qo'llanadi. Madaniy farqlarni tushunmaslik ushbu iboraning noto'g'ri talqin qilinishiga olib kelishi mumkin [2; 60-b].

2. Madaniyatlararo ong va empatiyani rivojlantirish. Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish o'quvchilarda boshqa madaniyatlarni tushunish va ularga hurmat bilan yondashish qobiliyatini shakllantiradi. Bu, o'z navbatida, empatiyani oshiradi va madaniyatlararo muloqotni samarali qiladi. Misol: g'arb madaniyatlarida ochiq fikr bildirish qadrlansa, sharq madaniyatlarida muloyimlik va hurmat asosida muloqot qilish ustuvor ahamiyatga ega. Ushbu farqlarni anglash o'quvchilarni yanada moslashuvchan qiladi [3; 92-b].

3. O'quvchilarni global muloqotga tayyorlash. Bugungi global dunyoda lingvomadaniy kompetensiya xalqaro hamkorlik va kommunikatsiya uchun zarurdir. U yumshoq ko'nikmalarni (soft skills), jumladan, ijtimoiy moslashuvchanlik va ko'p madaniyatli muhitda muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Misol: xalqaro konferensiyalarda yoki ish uchrashuvlarida turli madaniy normalarga rioya qilish o'quvchining professional va shaxsiy muvaffaqiyatiga xizmat qiladi [8;190-b].

Til madaniyatni aks ettirish vositasidir. Bu jihat o'quvchilarning tilni faqat grammatika va so'z boyligi darajasida emas, balki madaniy kontekstda qo'llash ko'nikmasini rivojlantiradi.

Tilshunoslik sohasida bir necha muammolar mavjud va ularga lingvokulturologiya kompetensiyasini rivojlantirib yechim topish mumkin. Shunday

muammolardan biri bu madaniy muhit yetishmasligi hisoblanadi. Ya'ni chet tilini ona tili bo'lmagan muhitda o'rganishda madaniy ta'sirlarning cheklanganligi muhim muammo hisoblanadi. O'quvchilar tilni nazariy jihatdan o'rganishlari mumkin, ammo uni haqiqiy madaniy kontekstda qo'llash imkoniyatidan mahrum bo'lishadi. Misol: ingliz tilidagi "small talk" an'anasi haqida o'rgatish qiyinchilik tug'dirishi mumkin, chunki ayrim madaniyatlarda bunday ijtimoiy suhbatlar odatiy emas [8;191-b].

Keyingi muammolardan biri bu madaniy stereotiplar va umumlashtirishlardir. Ba'zi hollarda, o'quvchilar boshqa madaniyatlar haqidagi tushunchalarni stereotip asosida shakllantirishi mumkin. Bu esa noto'g'ri tasavvurlar va madaniy noqulayliklarga olib keladi. Misol: "Amerikaliklar doimo rasmiy emas va ochiq gapiradi" degan stereotip barcha hollarda to'g'ri emasligi sababli noto'g'ri tushunchalar shakllanishiga olib keladi [3; 100-b].

Yechimlar: 1. Autentik materiallardan foydalanish. Darslarda autentik materiallarni (filmlar, adabiyotlar, matbuot) qo'llash o'quvchilarga til va madaniyatni real sharoitlarda o'rganish imkonini beradi. Misol: ingliz filmlaridagi ijtimoiy vaziyatlarni o'rganish, masalan: "The Pursuit of Happiness" filmidagi hayotiy dialoglar orqali til va madaniy qadriyatlarni tushunish mumkin [2; 73-b].

2. Madaniyatlararo almashuvlarni rag'batlantirish. Onlayn forumlar, xalqaro madaniy loyihalar yoki ko'p madaniyatli tadbirlarda ishtirok etish o'quvchilarning global muloqotda ishtirokini kuchaytiradi. Misol: "Etwinning" kabi onlayn platformalarda madaniyatlararo loyihalarda ishtirok etish orqali o'quvchilar boshqa madaniyat vakillari bilan bevosita aloqa qilishlari mumkin [8;192-b].

### **XULOSA VA TAKLIFLAR.**

Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish bugungi kunda ta'lim jarayonining muhim va uzviy qismiga aylanib bormoqda. Bu kompetensiya nafaqat ingliz tilini mukammal egallashni, balki ushbu tilning madaniy asoslarini chuqur anglashni ham o'z ichiga oladi.

Til o'rganish jarayonida lingvomadaniy kompetensiyani shakllantirish nafaqat til

o'rganuvchilarining dunyoqarashini kengaytiradi, balkim professional hayotda va o'quv jarayonlarida til va madaniyatning uyg'unligini ta'minlaydi, o'quvchilarga tilni real hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llash imkonini beradi. Bundan tashqari, madaniyatlararo ong va empatiyani rivojlantiradi, bu esa global hamkorlikda muvaffaqiyatli muloqotni kafolatlaydi. Hamda shaxsiy va professional rivojlanishga ko'maklashadi, xalqaro muhitda muvaffaqiyatli ishtirokni ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, lingvomadaniy kompetensiya nafaqat til o'rganishning asosiy maqsadi, balki madaniy tushuncha va kommunikativ moslashuvchanlikni shakllantirishning samarali vositasidir. Bu o'quvchilarga nafaqat ingliz tilini bilish, balki uning madaniy mohiyatini anglash orqali dunyoqarashni kengaytirish imkonini beradi. Shu sababli, lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirish ta'limning majburiy holistik maqsadi sifatida qaralishi zarur.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Brown H. D. Principles of Language Learning and Teaching. – New York: Pearson Education, 2007. – 320 b.
2. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – 124 b.
3. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 1993. – 304 b.
4. Sapir E. Language: An Introduction to the Study of Speech. – New York: Harcourt, Brace & World, Inc., 1921. – 258 b.
5. Hymes D. On communicative competence // Sociolinguistics. – London: Penguin Books, 1972. – B. 269–293.
6. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – 159 b.
7. Halliday M.A.K., Hasan R. Cohesion in English. – London: Longman, 1976. – 374 b.
8. Davletbayeva, Z.A. Лингвокультурология: теория и практика. – Almaty: Kazakh University, 2010. – 215 b.